


Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)
(2019-yil 1-mart holatiga)

2019-yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent shahrida 5,0 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,8 mingtaga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 11,2 mingta (15,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 73,6 mingtani tashkil etgan.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar
va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	752	714	25
 Sanoat	14318	13927	645
 Qurilish	5862	5698	322
 Savdo	17285	16803	2878
 Tashish va saqlash	3139	3062	132
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5516	5273	239
 Axborot va aloqa	2883	2794	127
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1437	1407	47
 Boshqa turlari	24755	23922	672



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-mart holatiga 75,9 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 22,7 % savdo, 18,9 % sanoat, 7,7 % qurilish, 1,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 3,8 % axborot va aloqa, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 32,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Yunusobod (10255 ta), Chilonzor (9793 ta), Mirzo Ulugbek (8577 ta), Olmazor (7915 ta), Shayxontohur (7520 ta), Uchtepa (6881 ta) va Yakkasaroy (6786 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Mirobod (6427 ta), Yashnobod (5676 ta), Sergeli (4408) hamda Bektemir (1709 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar yillar kesimida soni, mingda.






Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar. (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 73,6 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 11,2 mingta (15,2 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,8 % savdo, 19,0 % sanoat, 7,7 % qurilish, 1,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 3,8 % axborot va aloqa, 2,0 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 32,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Yunusobod (9894 ta), Chilonzor (9378 ta), Mirzo Ulug'bek (8400 ta), Olmazor (7819 ta), Shayxontohur (7153 ta), Yakkasaroy (6708 ta), Uchtepa (6603) va Mirobod (6242 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yashnobod (5426 ta), Sergeli (4292 ta) hamda Bektemir (1685 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

01.03.2017 y.

• 56,4 ming

01.03.2018 y.

• 62,3 ming

01.03.2019 y.

• 73,6 ming




Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar.

2019-yil yanvar-fevral oylarida 5087 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilning shu davriga nisbatan 56,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Uchtepa (943 ta), Olmazor (711 ta), Chilonzor (650 ta), Yunusobod (538 ta), Shayxontohur (476 ta), Mirzo Ulug'bek (380 ta) va Mirobod (304 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yashnobod (293 ta), Sergeli (271 ta) hamda Yakkasaroy (270 ta), Bektemir (251 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (2878 ta), sanoat (645 ta), qurilish (322 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (239 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlash (132 ta), axborot va aloqa (127 ta), sog'liqni saqlash va

ijtimoiy xizmatlar (47 ta) hamda qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi (25 ta) faoliyat turlari hissasiga toʻgʻri kelgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xoʻjaliklaridan tashqari)

	01.03.2017 y.		01.03.2018 y.		01.03.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Respublika bo'yicha jami	2015	100	2206	100	5087	100
Savdo	371	18,4	536	24,3	2878	56,6
Sanoat	537	26,6	444	20,1	645	12,6
Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi	60	3,0	53	2,4	25	0,5
Qurilish	183	9,1	244	11,0	322	6,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	196	9,7	167	7,5	239	4,7
Tashish va saqlash	92	4,5	96	4,4	132	2,6
Axborot va aloqa	67	3,4	109	5,0	127	2,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	30	1,5	31	1,5	47	1,0
Boshqa turlari	479	23,8	526	23,8	672	13,2

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, mingda






TIJORAT KORXONALARI

2019-yil 1-mart holatiga 64,9 mingta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 10,9 mingta, oilaviy korxonalar – 2,3 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 50,3 mingta va boshqalar 1,4 mingtani tashkil etgan.


Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yil 1-mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 4988 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 1258 taga yoki 25,2 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 2283 tasi qo'shma korxonalar, 2705 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Mirobod (824 ta yoki jamidagi ulushi 16,5 %), Yakkasaroy (795 ta yoki 16,0 %), Yunusobod (662 ta yoki 13,3%), Mirzo Ulug'bek (623 ta yoki 12,5%), Chilonzor (579 ta yoki 11,6%), Yashnobod (407 ta yoki 8,2%) va Shayxontohur (355 ta yoki 7,1%) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Olmazor (284 ta yoki 5,7%), Sergeli (192 ta yoki 3,8%), Uchtepa (150 ta yoki 3,0%) va Bektemir (117 ta yoki 2,3%) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p savdoda 1398 tani (28,0 %), sanoatda 1320 tani (26,4 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1092 tani (22,0 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa qurilishda 438 tani (8,8 %), yashash va ovqatlanish

bo'yicha xizmatlarda 251 tani (5,0 %), axborot va aloqada 204 tani (4,0 %), tashish va saqlashda 162 tani (3,3 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 68 tani (1,4 %) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 55 tani (1,1 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 320 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 160 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 52 ta, Turkiya Respublikasi – 46 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 23 ta, Qozog'iston Respublikasi – 48 ta, va Koreya Respublikasi – 23 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Shuningdek, 2019-yil boshidan Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi ulushi, %
(yanvar-fevral oylarida)



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdo (129 ta), sanoat (44 ta), qurilish (45 ta), va boshqa faoliyat turlari (102 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**

	2018-yil yanvar-fevral oylarida		2019-yil yanvar-fevral oylarida	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Jami	160	100	320	100
Sanoat	50	31,2	44	13,8
Savdo	51	32	129	40,3
Qurilish	11	6,9	45	14
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4	2,5	6	1,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	2,5	13	4,1
Axborot va aloqa	9	5,6	14	4,4
Tashish va saqlash	4	2,5	12	3,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	0,6	5	1,5
Boshqa turlari	26	16,2	52	16,2



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-mart holatiga Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 64,2 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-mart holatiga qaraganda 17,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 8,5 mingtasi (13,4 %) Yunusobod, 8,1 mingtasi (12,6 %) Chilonzor, 7,1 mingtasi (11,2 %) Mirzo Ulug'bek hamda 7,0 mingtasi (11,0 %) Olmazor tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 64,2 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 16,7 mingtasi (25,9 %) – savdo, 13,8 mingtasi (21,5 %) - sanoat, 5,7 mingtasi (8,8 %) - qurilish, 0,7 mingtasi (1,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5,2 mingtasi (8,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 3,0 mingtasi (4,7 %) - tashish va saqlash, 2,7 mingtasi (4,2 %) - axborot va aloqa sohasi, 1,2 mingtasi (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 15,2 mingtasi (23,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-fevral oylarida 4,9 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 58,0 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Uchtepa tumani (935 ta), Olmazor tumani (700 ta), Chilonzor tumani (630 ta), Yunusobod tumani (518 ta), Shayxontohur tumani (454 ta), Mirzo Ulug'bek tumani (364 ta), va Mirobod tumani (292 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng

kam, Yashnobod tumani (284 ta), Sergeli tumani (265 ta), Yakkasaroy tumani (262 ta) hamda Bektemir (250 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2878 ta), sanoatda (641 ta), boshqa faoliyat turlari sohasida (551 ta), qurilishda (320 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (238 ta) va axborot va aloqada (124 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (132 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (45 ta) hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (25 ta) tashkil etilgan.

 **Oilaviy korxonalar soni**




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019-yilning 1-mart holatiga 2434 tani tashkil etib, ulardan 2358 tasi yoki 96,8 % faoliyat yuritadi.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 43,2 % yoki 1019 tasi sanoat, 17,5 % yoki 413 tasi savdo, 17,0 % yoki 400 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,4 % yoki 58 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,8 % yoki 42 tasi qurilish, 0,8 % yoki 19 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 22 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % yoki 37 tasi axborot va aloqa hamda 14,8 % yoki 348 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Toshkent shahar statistika
boshqarmasi**
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
boshlig'i Rashidov Aziz
Tel.:71-230-88-31